



RAQAMLI SAVDO MARKETPLEYSLARI VA ULARNI RIVOJLANTIRISH

Xaydarova Kamola Axinjonovna

Toshkent kimyo-texnologiya instituti katta o'qituvchisi

Abdig'aniyeva Ozodaxon Faxriddin qizi

Marketing yo'nalishi talabasi

e-mail:ozodaabduganiyeva723@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqolada raqamli iqtisodiyot sharoitida savdo jarayonlarining transformatsiyasi hamda raqamli marketpleyslarning iqtisodiyotdagi o'rni tahlil qilinadi. Raqamli savdo platformalarining rivojlanishi, ularning biznes subyektlari va iste'molchilar uchun yaratadigan imkoniyatlari hamda zamonaviy texnologiyalar asosida faoliyat yuritish mexanizmlari o'rganiladi.

Kalit so'zlar: *raqamli iqtisodiyot, marketpleys, raqamli platformalar, sun'iy intellekt, big data, elektron tijorat, innovatsion texnologiyalar, elektron savdo, kichik biznes.*

Abstract. This article analyzes the transformation of trade processes in the digital economy and the role of digital marketplaces in the economy. The development of digital trading platforms, the opportunities they create for business entities and consumers, and the mechanisms of their operation based on modern technologies are studied.

Keywords: digital economy, marketplace, digital platforms, artificial intelligence, big data, e-commerce, innovative technologies, e-commerce, small business.

Аннотация: В данной статье анализируется трансформация торговых процессов в цифровой экономике и роль цифровых торговых площадок в



экономике. Рассматривается развитие цифровых торговых платформ, возможности, которые они создают для бизнес-субъектов и потребителей, а также механизмы их функционирования на основе современных технологий.

Ключевые слова: цифровая экономика, торговая площадка, цифровые платформы, искусственный интеллект, большие данные, электронная коммерция, инновационные технологии, электронная коммерция, малый бизнес.

Kirish. Raqamli iqtisodiyot global miqiyosda jadal rivojlanib borayotgan bugungi kunda savdo jarayonlari ham tubdan o'zgarib, an'naviy chakana va ulgurji savdo modellari o'rnini tobora ko'proq raqamli platformalar egallamoqda. Ushbu transformatsiya nafaqat iqtisodiy jarayonlarni optimallashtirish, balki jamiyatning kundalik hayotiga ham chuqur ta'sir ko'rsatmoqda. Raqamli savdo platformalari va marketpleyslar, o'zining keng qamrovli imkoniyatlari tufayli, bozorlarga kirishni demokratlashtirmoqda, xalqaro savdo hajmini oshirmoqda va yangi biznes modellarini yaratishga zamin yaratmoqda. Ularning dolzarbligi shundaki, ular nafaqat iste'molchilarga keng assortiment va qulay xarid qilish imkonini beradi, balki tadbirkorlarga ham o'z mahsulotlari va xizmatlarini keng auditoriyaga yetkazish, geografik chegaralarni yengib o'tish hamda xarajatlarni optimallashtirish uchun misli ko'rilmagan imkoniyatlarni taqdim etadi. Mazkur platformalar zamonaviy texnologiyalar, jumladan, sun'iy intellekt(AI), katta ma'lumotlar tahlili(Big Data), blokcheyn texnologiyasi va Internet of Things kabi innovatsiyalarning sinergik qo'llanilishi natijasida doimiy rivojlanib bormoqda. Bu texnologiyalar xaridorlar tajribasini shaxsiylashtirish, operatsion samaradorlikni oshirish xavfsizlikni ta'minlash va yangi xizmatlarni joriy etish imkonini bermoqda. O'zbekiston kabi rivojlanayotgan iqtisodiyotlar uchun raqamli savdo platformalari va marketpleyslar alohida ahamiyat kasb etadi. Ular ichki bozor salohiyatini ochib berish, kichik va o'rta biznesni rivojlantirish, yangi ish o'rinlarini yaratish hamda



mamlakatning global savdo tizimiga integratsiyalashuvini jadallashtirishga xizmat qiladi. Shu sababli raqamli savdo platformalari va marketpleyslarning rivojlanish tendensiyalarini o'rganish, ularning iqtisodiyotdagi o'rni va ahamiyatini tahlil qilish dolzarb ilmiy masalalardan biri hisoblanadi.

Adabiyotlar sharhi. Raqamli iqtisodiyot va elektron savdo sohasidagi ilmiy tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, raqamli platformalar va marketpleyslar zamonaviy iqtisodiy tizimning muhim elementiga aylangan. Ushbu yo'nalishda bir qator olimlar tomonidan keng qamrovli ilmiy tadqiqotlar olib borilgan. Masalan, Geoffrey G. Parker, Marshall W. Van Alstyne va Sangeet Paul Choudary o'zlarining asarlarida platforma iqtisodiyotining shakllanishi, raqamli platformalarning biznes modellari hamda ularning global bozorlardagi roli haqida batafsil tahlil olib borganlar. Mualliflar platformalar ishlab chiqaruvchi va iste'molchi o'rtasidagi aloqani soddalashtirib, yangi iqtisodiy imkoniyatlarni yaratishini ta'kidlaydilar.

Shuningdek, David S. Evans va Richard Schmalensee ko'p tomonlama platformalarning iqtisodiy mohiyati va ular orqali qiymat yaratish mexanizmlari o'rgangan. Mualliflar marketpleyslar bir vaqtning o'zida bir nechta foydalanuvchi guruhlarini bog'lab, savdo jarayonlarini samarali tashkil etishini asoslab berganlar. Umuman olganda, mavjud ilmiy adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, raqamli marketpleyslar zamonaviy savdo tizimining muhim tarkibiy qismi bo'lib, ular iqtisodiy samaradorlikni oshirish, savdo jarayonlarini soddalashtirish hamda yangi biznes modellarini yaratishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Muhokama va natijalar. Marketpleys — bu bir nechta sotuvchilar va xaridorlarni birlashtiruvchi onlayn savdo platformasi. Sotuvchilar o'z mahsulot va xizmatlarini ushbu platformada joylashtiradi, xaridorlar esa o'ziga kerakli tovarlarni tanlab xarid qiladi. Raqamli marketpleyslarning asosiy afzalliklaridan biri – bu bozorlarga kirish imkoniyatining kengayishidir. Kichik va o'rta biznes subyektlari o'z mahsulotlarini katta investitsiyalarsiz ham keng auditoriyaga taqdim etish imkoniyatiga ega bo'ladi. O'zbekistonda raqamli savdo bozori jadal rivojlanayotgan



bo'lib, unda Uzum Market, Wildberries va OLX platformalari muhim o'rin egallaydi. Ushbu platformalar faoliyatini tahlil qilish orqali ularning bozor strukturasi, raqobatbardoshligi va iqtisodiy samaradorligini aniqlash mumkin.

1-jadval.

Ko'rsatkichlar	Uzum market	Wildberries	OLX
Platforma turi	B2C marketplace	B2C marketplace	C2C e'lonlar platformasi
Ish boshlagan yili	2022-yil	2020 (O'zbekiston bozorida)	2015-yil
Foydalanuvchilar soni	17mln+(oylik)	5-7mln	10mln+(oylik tashrif)
Savdo hajmi(GMV)	~345mln\$(2024)	~150-200mln\$	GMV yo'q
Bozor ulushi	65-75%	15-20%	E'lonlar segmentida yetakchi
Sotuvchilar soni	6000+	5000+	Individual foydalanuvchilar
Mahsulotlar soni	1mln+SKU	22mln+SKU	Cheklanmagan e'lonlar
O'sish surati	2-2,5 barobar/yil	70-100%	Barqaror(10-20%)
Asosiy kategoriyalari	Elektronika, kiyim, maishiy texnika	Kiyim, poyabzal, uy-ro'zg'or	Avto, ko'chmas mulk, ikkinchi qo'l tovarlar
Logistika	1kunda yetkazish, 1000+pickup	2-5kun	Yo'q



To'lov tizimi	Uzum Bank, online, muddatli to'lov	Online, yetkazishda to'lov	Naqd/kelishuv asosida
Monetizatsiya	Komissiya(5-15%)	Komissiya	Reklama va pullik e'lonlar
Asosiy ustunlik	Tez logistka, local moslashuv	Arzon narx,keng assortiment	Soddalik va bepul foydalanish
Kamchiliklar	Raqobat oshmoqda	Yetkazib berish muommolari	Firibgarlik xavfi
Ishonchlilik darajasi	Yuqori	O'rta-yuqori	O'rta

Tahlil natijalariga ko'ra, Uzum Market mahalliy bozorda yetakchi platforma hisoblanadi. Uning asosiy ustunligi rivojlangan logistika tizimi, tezkor yetkazib berish xizmati va foydalanuvchilar uchun qulay interfeys bilan bog'liq. Platforma qisqa vaqt ichida katta foydalanuvchilar bazasini shakllantirib, bozorning asosiy ulushini egallagan. Bu esa uning milliy iqtisodiyotdagi rolini sezilarli darajada oshiradi.

Wildberries platformasi esa xalqaro marketpleys sifatida O'zbekiston bozoriga kirib kelib, raqobat muhitini kuchaytirmoqda. U keng assortiment va nisbatan arzon narxlar orqali mijozlarni jalb qilmoqda. Shu bilan birga, logistika va yetkazib berish jarayonlaridagi ayrim kamchiliklar uning rivojlanish sur'atiga ma'lum darajada ta'sir ko'rsatmoqda. Biroq, umumiy hisobda platformaning o'sish dinamikasi yuqori ekanligi kuzatiladi.

OLX platformasi esa boshqa ikki platformadan farqli ravishda C2C model asosida ishlaydi. Unda foydalanuvchilar o'zaro to'g'ridan-to'g'ri savdo qiladilar. Ushbu platforma savdo hajmi jihatidan aniq ko'rsatkichlarga ega bo'lmasa-da, keng auditoriya va foydalanishning soddaligi bilan ajralib turadi. Shu bilan birga,



platformada firibgarlik xavfi va nazorat mexanizmlarining yetarli emasligi muammoli jihatlar sifatida qayd etiladi.

2-jadval.

Ko'rsatkichlar:	SELLO	ZOOMMALL
Tashkil topgan yili	2021-yil sentyabr	2019-yil mart
Platformalar	Veb-sayt, mobil ilova.	Veb-sayt, mobil ilova.
Foydalanuvchilar	Oyiga 150mingta	Oyiga 1,5mln
Segmentlar	Elektronika, kiyim-kechak, poyabzal, aksessuarlar, mebel.	Elektronika, kiyim-kechak, poyabzal, aksessuarlar, mebel, uy jihozlari.
Asosiy yo'nalish	Mahalliy sotuvchilar	Xalqaro sotuvchilar (asosan Xitoy)
Yillik aylanma (GMV)	\$50–150 mln	\$500 mln – \$1 mlrd+
Logistika modeli	Mahalliy yetkazib berish	Xalqaro shipping
Yetkazish vaqti	1–3 kun	7–20 kun



Xarajatlar	Marketing + logistika	Logistika + xalqaro operatsiya
------------	-----------------------	--------------------------------

Raqamli marketplace platformalari ichida Sello va ZoodMall o'zining biznes modeli va iqtisodiy ko'rsatkichlari bilan sezilarli farqlanadi. Jadval ma'lumotlariga ko'ra, Sello asosan mahalliy bozorga yo'naltirilgan bo'lib, uning asosiy ustunligi tezkor yetkazib berish va lokal sotuvchilar bilan ishlashidir. Bu esa foydalanuvchilar uchun ishonch va xizmat tezligini oshiradi. ZoodMall esa global marketplace sifatida faoliyat yuritib, xalqaro savdoga ixtisoslashgan. Uning asosiy afzalligi keng assortiment va nisbatan arzon narxlar hisoblanadi. Biroq yetkazib berish muddati uzoqroq bo'lib, bu omil ba'zi iste'molchilar uchun noqulaylik tug'dirishi mumkin. Iqtisodiy ko'rsatkichlarga e'tibor qaratilsa, ZoodMall'ning yillik aylanmasi (GMV) Sello'ga nisbatan bir necha barobar yuqori. Bu holat platformaning global miqyosda faoliyat yuritishi va ko'proq foydalanuvchilarni jalb qilishi bilan izohlanadi. Shu bilan birga, Sello'ning o'rtacha chek miqdori yuqoriroq bo'lib, bu mahalliy bozorda sifatli va tez yetkazib beriladigan mahsulotlarga talab mavjudligini ko'rsatadi. Bundan ko'rish mumkinki, Sello va ZoodMall turli strategiyalar asosida rivojlanmoqda. Sello lokal bozorda tezkor xizmat va ishonchga tayanib o'sayotgan bo'lsa, ZoodMall global miqyosda arzon narx va keng assortiment orqali ustunlikka erishmoqda.

O'tkazilgan tahlillar shuni ko'rsatadiki, O'zbekistonda raqamli savdo bozori asta-sekin an'anaviy savdodan marketplace modeliga o'tmoqda. Bu jarayonda ayniqsa logistika infratuzilmasi, to'lov tizimlari va foydalanuvchi ishonchi muhim omillar hisoblanadi. Mahalliy va xalqaro platformalar o'rtasidagi raqobat esa xizmatlar sifatining oshishiga va bozorning yanada rivojlanishiga xizmat qilmoqda.



Xulosa va tavsiyalar. Bozor va marketing strategiyalarini kuchaytirish orqali foydalanuvchi tajribasini yaxshilash, sodiqlik dasturlarini joriy etish va marketing kampaniyalarini moslashtirish orqali platforma foydalanuvchilarini kengaytirish. Tadbirkorlar uchun qo‘llab-quvvatlash dasturlarini yaratish kichik va o‘rta biznes subyektlarini integratsiya qilish, savdo jarayonlarini soddalashtirish va mahsulotlarini xalqaro bozorlarga chiqarish imkoniyatlarini taqdim etish. Xavfsizlik va ishonchlilikni ta’minlash, to‘lov tizimlari va ma’lumotlarni himoya qilish, firibgarlikka qarshi chora-tadbirlar va monitoring tizimlarini rivojlantirish. Mahalliy marketpleyslarni rivojlantirish O‘zbekiston tadbirkorlari va ishlab chiqaruvchilarini qo‘llab-quvvatlash, mobil ilovalar va onlayn xizmatlarni kengaytirish, mahalliy mahsulotlarni targ‘ib qilish. Innovatsion xizmatlar va yangi funksiyalar joriy etish, tavsiya tizimlari, tezkor yetkazib berish, virtual xizmatlar va boshqa innovatsion funksiyalar orqali platforma qiymatini oshirish.

Xulosa qilib aytganda, kelajakda raqamli texnologiyalarning yanada rivojlanishi raqamli marketpleyslarning imkoniyatlarini kengaytirib, savdo tizimining yanada samarali faoliyat yuritishiga zamin yaratadi. Shu sababli raqamli savdo platformalarini rivojlantirish, ularning infratuzilmasini takomillashtirish hamda innovatsion texnologiyalarni joriy etish iqtisodiy rivojlanishning muhim omillaridan biri hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Geoffrey G. Parker, Marshall W. Van Alstyne va Sangeet Paul Choudary "Platform Revolution".
2. David S. Evans va Richard Schmalensee Matchmakers: "The New Economics of Multisided Platforms".
3. https://www.researchgate.net/publication/392362971_KICHIK_BIZNES_DA_RAQAMLI_PLATFOMALAR_-ELEKTRON_TIJORAT_SAYTLARI



MARKETPLEYSLAR VA MOBIL ILOVALAR JORIY ETISHNING HOL
ATINI TAHLIL QILISH.

4. <https://www.gazeta.uz/oz/2023/08/25/e-commerce/>.
5. <https://mustaqilish.uz/library/raqamli-savdo-platfomalari-va-marketpleyslar>.
6. Begalov B.a., Abdullayev M.K. Raqamli Iqtisodiyot.
7. Axinjanovna X. K. Marketing at a Chemical Enterprise //JOURNAL OF ECONOMICS AND BUSINESS MANAGEMENT. – 2023. – T. 6. – №. 4. – С. 63-66.
8. Axinjanovna X. K. et al. YANGI BOZORLARGA KIRISH STRATEGIYALARI //Ta'lim innovatsiyasi va integratsiyasi. – 2025. – T. 44. – №. 2. – С. 133-143.